O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60230100-2/03
2021- yil
“__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “__”_____

TILSHUNOSLIK VA SOTSIOLOGIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan dasturi SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil _____dagi ____-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi _____sonli bayonnoma).

Fakultet o‘quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi _____sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi TVST4006	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 7	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Tanlov	**Ta’lim tili** O‘zbek		**Haftadagi dars soatlari** 18

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
	Tilshunoslik va sotsiologiya	105	75	

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga fan tushunchasi, fanning sistema ekanligi, sistemani tashkil etgan yo‘nalishlar, tarmoqlar, kichik ixtisosliklar, ularning asosiy kategoriya va tushunchalari haqida ma’lumot berish; tilshunoslikning barcha fanlar bilah uzviy aloqada ekanligi, tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni, tilshunoslikning fanlar bilan aloqasini o‘rgatishdan iborat. “Tilshunoslik va sotsiologiya” ning mohiyati, metodlari, tushunchalari va terminlarini o’zlashtirish; fanning kategorial muammolari haqida nazariy bilimlarni egallash, shuningdek, fanning bugungi kundagi dolzarb muammolarini belgilashdan iborat.

Fanning vazifasi – tilshunoslikning jamiyatda mavjud barcha ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar: falsafa, mantiq, tarix, adabiyot, madaniyatshunoslik, jamiyatshunoslik, biologiya, fiziologiya, nevralogiya, kimyo, fizika, matematika, kibernetika, semiotika, geografiya bilan munosabati va bu fanlarning tilshunoslikka, tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlarga ta’siri to‘g‘risida bilim berish vazifalarini amalga oshirish hamda fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish nazarda tutiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Kirish. Tilshunoslikning fanlar tizimida tutgan o‘rni. Tilshunoslikning ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlarga munosabati.

1-mavzu. “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” fanining o‘rganish obyekti, maqsadi va vazifalari. Bilish va uning turlari. Fan va uning paydo bo’lishi. Fan tushunchasi. Fanlar sistemasi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni. Tilshunoslikning ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlarga munosabati. “Tilshunoslik va sotsiologiya” fanining o’rganish obyekti, maqsadi va vazifalari.

2-mavzu: Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati. Tilshunoslik va falsafa. Tilshunoslikda falsafa kategoriyalarining voqelanishi Substansional yondashuvning asosiy tamoyillari. Dialektik kategoriyalar va

	tilshunoslik. Mentalingvistika. **3-mavzu: Tilshunoslik va mantiq.** Tilshunoslik va mantiq. Tilshunoslikda mantiq tamoyillarining qo‘llanilishi. An’anaviy va dialektik mantiq. Mantiqiy kategoriyalarning tilshunoslikka tatbiq etilishi. **4-mavzu: Tilshunoslik va tarix.** Tilshunoslik va etnografiya. Etnolingvistika. Til tarixi. Tarixiy jarayonlarning, xalq hayotida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlarning tilga ta’siri. Bir mamlakatda yashaydigan etnoslarning bir-biriga lingvistik nuqtayi nazardan ta’siri. **5-mavzu: Tilshunoslik va sotsiologiya.** Sotsiolingvistika. Sotsiolingvistikaning predmeti, maqsad va vazifalari. Tilning ijtimoiyligi, mavjudlik shakllari, tipologiyasi. Bilingvizm va diglossiya. Interferensiya va uning turlari. **6-mavzu**: **Tilshunoslik va madaniyatshunoslik.** Til va milliy madaniyat mushtarakligi. Lingvokulturologiya va uning asosiy tushunchalari: lingvokulturologik paradigma, lingvokulturologik konsept, freym va geshtalt. O‘zbek tilini lingvokulturologik aspektda o‘rganish muammolari. **7-mavzu: Tilshunoslik va psixologiya.** Til ruhiy hodisa sifatida. Tilshunoslikda psixologizm. Psixolingvistika. Ruhiy kasallarni davolashda psixologiya va tilshunoslikning roli. **8-mavzu: Tilshunoslik va adabiyot. Lingvopoetika**. Emotsional-ekspressivlikni, estetik ta’sirchanlikni hosil qiluvchi til birliklari. Badiiy tasvir vositalari. Poetik sintaksis. Fonopoetika, morfopoetika, sintaktik poetika va hk. **9-mavzu:Tilshunoslik va pragmatika. Pragmalingvistika. Nutqiy faoliyat tushunchasi.** Nutq ko‘rinishlari, diskurs, nutq aktlari: illokutiv, lokutiv, perlokutiv; deyksis nazariyasi, adresat va adresant munosabati, implisit va eksplisit ma’nolar, tag ma’no, kinoya. **10-mavzu: Tilshunoslik va genderologiya.** Gender tushunchasining kelib chiqishi, genderologiya fanining shakllanishi. Jamiyat taraqqiyotida gender omili. Gender omilining nutqiy voqelanishi. Biologik jins tushunchasi, grammatik jins tushunchasi va tillarda so‘z, qo’shimcha orqali bu tushunchaning aks etishi **11-mavzu. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Tilshunoslik va biologiya. Nutq tovushining biologik aspekti.** Nutq organlari fiziologiyasi. Nutq organlari anatomiyasi. Nutq organlarining ijro kechimi: artikulyatsiya o‘rni, artikulyatsiya usuli, artikulyatsiya bazasi va hk. **12-mavzu: Tilshunoslik va logopediya.** Logopediya – defektologiyaning bir qismi sifatida. Logopediyaning o‘rganish ob’yekti. Tovushlarning me’yoriy talaffuzi. Me’yoriy talaffuzga o‘rgatish. **13-mavzu. Tilshunoslikning nevralogiya bilan munosabati. Neyrolingvistika.** A.R.Luriya. Bosh miyaning zararlanishi. Afaziya va uning turlari. Markaziy nerv sistemasi. Chegara nerv sistemasi. **14-mavzu. Tilshunoslikning kimyo bilan munosabati. Atom-molekulyar ta’limot va tilshunoslik.** Atom va molekulalarning uzluksiz harakatda ekanligi va tilshunoslikda dinamika va statika.Struktur

	tilshunoslik. Sinxroniya va diaxroniya. **15-mavzu. Valentlik nazariyasi va tilshunoslik.** Verbosentrik nazariya. Birikish xususiyati.Faol va nofaol valentlik. Valentlik turlari: leksik, semantik, sintaktik valentlik. **16-mavzu. Tilshunoslikning fizika bilan munosabati. Akustika va tilshunoslik.** Fonetikani o‘rganishda tajribaviy usullar. Nutq intonatsiyasini o‘rganishning eksperimental-fonetik usullari. **17-mavzu. Fizikada maydon nazariyasi va uning tilshunoslikka ta’siri. Tilshunoslikda maydon nazariyasi.** Fizikada magnit maydoni nazariyasining yaratilishi. Tilshunoslikda maydon komponenti ishtirok etgan tushunchalar: funksional-semantik maydon, leksik maydon, mikro va makro maydon va hk. **18-mavzu. Yadro, periferiya tushunchasi.** Tilshunoslikda yadro, periferiya munosabatining tatbiq etilishi **19-mavzu.Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Tilni o’rganishda statistik metodlardan foydalanish.** Tilni matematik yo‘l bilan tavsiflash. Matematik tavsiflash usullarini o‘rganish. Bevosita ishtirokchilar grammatikasi, tobelik grammatikasi, formal grammatika. **20. Tilni o‘rganishda statistik metodlardan foydalanish. Chastotali lug‘atlar.** Jahon, o’zbek tilshunosligida statistik metodni qo’llagan olimlar haqida, statistik metodning tilshunoslikda ahamiyati, chastotali lug‘atlar haqida ma’lumot berish **21-mavzu.Nisbiylik nazariyasi va tilshunoslik.** Tilshunoslik va kibernetika. Avtomatik tarjima. Ehtimollar nazariyasi. «Markov jarayoni» yoki «Markov» zanjiri.Kibernetika fanining shakllanishi. **22-mavzu.**Kompyuter lingvistikasi hamda uning maqsad va vazifalari. Kompyuter lingvistikasining istiqbol yo’nalishlari. Matn korpusini yaratish. **23-mavzu. Tilshunoslikda modellashtirish metodidan foydalanish.** Model tushunchasining mohiyati. Modellashtirish va uning tilga tatbiqi. Modellashtirishning pragmatik jihatlari va kamchiliklari. Kompyuter lingvistikasida analogiya metodi. **24-mavzu:Tilshunoslik va semiotika. Semasiologiya.** Belgi haqidagi falsafiy nazariya. Belgi va uning turlari: tabiiy va sun’iy, sanam, indeks belgilar va kommunikativ belgilar va hk.Til belgilar tizimi ekanligi. Lingvistik belgilar. **25-mavzu: Tilshunoslik va geografiya.** Tilshunoslik va geografiya. Til landshafti. Dialektologiya. Areal lingvistika. Izoglassa va til landshafti.Til yoki shevalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir maydonlari. **26-mavzu. Tilshunoslikning tabiiy fanlarga ta’siri** Tabiiy fanlar. Atamalar tizimi. Ilmiy-texnik atamalar. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida atama hosil qilish. Chetdan so‘z olish orqali atama hosil qilish. **27-mavzu: Jamiyatda mavjud lingvistik muammolar va ularning lihgvosotsiologik yechimi, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari.**

	III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar. Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Bilish va uning turlari. Fan tushunchasi. Fanlar sistemasi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni. 2. Tilshunoslikda falsafa kategoriyalarining voqelanishi. Dialektik kategoriyalar va tilshunoslik. 3.Til va tafakkur. Mantiqiy va grammatik kategoriyalarning o‘xshash va farqli jihatlari. 4. Tilshunoslikning tarix va til egasi etnos bilan munosabati. 5. Til va jamiyat.Tilning mavjudlik shakllari, bilingvizm va uning turlari. 6.Til va so‘zlovchining ruhiy faoliyati. 7.Til va informatsiya uzatish.Pragmalingvistika. 8. Tilshunoslikning adabiyot bilan aloqasi. Badiiy asar tili.Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik poetika. 9. Tilshunoslik va biologiya. Nutq organlari fiziologiyasi. 10. Tovushlarning me’yoriy talaffuzi. Me’yoriy talaffuzga o‘rgatish. 11. Neyrolingvistika.Afaziya va uning turlari. 12. Atom-molekulyar ta’limot va tilshunoslik. Atom va molekulalarning uzluksiz harakatda ekanligi va tilshunoslikda dinamika va statika. 13. Valentlik nazariyasi va tilshunoslik. Verbosentrik nazariya. Valentlik turlari: leksik-semantik, mantiqiy, sintaktik valentlik 14.Moddalar tarkibining doimiyligi qonuni va tilshunoslik. D.I.Mendeleyevning elementlar davriy sistemasi va tilshunoslik 15.Nutq tovushlarining akustik xususiyatlari: tovush balandligi, 2) tovush kuchi, 3)tovush cho‘ziqligi 4) tovush tembri. 16.Fonetikani o‘rganishda tajribaviy usullar. Nutq intonatsiyasini o‘rganishning eksperimental-fonetik usullari. 17. Tilshunoslikda maydon nazariyasi. Fonem maydon, leksik-semantik maydon, morfem maydon va hk. 18. Tilshunoslikda yadro-periferiya munosabatining tatbiq etilishi.So‘z turkumlarida yadro-periferiya munosabati. 19.Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Matematik lingvistika. Tilni o’rganishda statistik metodlardan foydalanish. 20. Tilshunoslik va kibernetika. Avtomatik tarjima. Ehtimollar nazariyasi. 21. Kompyuter lingvistikasi. O’zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi bo’yicha qilingan tadqiqotlar. Kompyuter lingvistikasining istiqbol yo’nalishlari. 22.Kompyuter leksikografiyasi kompyuter lingvistikasi fanining alohida yo‘nalishi sifatida. Tezaurus lug‘atlarni yaratish tajribasidan 23. Semiotika va uning yo‘nalishlari. Tilning belgi sifatida o‘rganilishi. 24. Lingvistik geografiya predmeti, maqsad va vazifalari. 25. “O‘zbek tilining izohli lug’ati”da fanlarga oid terminlarning leksikografik tatqiqi

	26. Tabiiy fanlar bo‘yicha atamalarni me’yorlashtirish masalasi va lug‘atlar tuzish. **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1.Bilish va uning turlari 2. Fanlar tasnifi haqida olimlarning fikrlari. 3.A.Nasr Forobiyning “Fanlarning kelib chiqishi” risolasi haqida 4.Jahon va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan antropolingvistik tadqiqotlar. 5.Obyektga substonsional yondashuv (UMIS va AHVO dialektikasini hisobga olish) 6. Mantiqiy-grammatik qarashlar. 7. Tilshunoslikda etnolingvistik tadqiqotlar 8.Sotsiolingvistika. Sun’iy tillar haqida. 9.Tilning mavjudlik shakllari: xalqaro tillar, milliy tillar, dialektlar, koynelar, kreol va pijin tillari va hk. 10.Bilingvizm va uning turlari. 11. Lingvokulturologiya. Olamning lisoniy manzarasi. Stereotiplar va lakunalar. 12.Gender tushunchasining nutqda voqelanishi. So‘z, qo‘shimcha, so‘z birikmasi orqali ifodalanishi 13. Tilshunoslik va psixologiya. Etnopsixolingvistika. 14. O‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan lingvopoetik tadqiqotlar xususida: N.Mahmudov, S.Karimov, I.Mirzayev, M.Yo‘ldoshev tadqiqotlari to‘g’risida. 15. Badiiy asar tili.Badiiy tasvir vositalari 16. O‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan pragmalinvistik tadqiqotlar xususida: Sh.Safarov, S.Boymirzayeva, G.Toirova, Z.Pardayev tadqiqotlari to‘g’risida. 17. Nutq organlari fiziologiyasi. 18.Fonetika. Ekspremental fonetika xususida. 19. Logopediya – defektologiyaning bir qismi sifatida. Tovushlarning me’yoriy talaffuzi. 20.Afaziya va uning turlari. 21.Neyrolingvistik dasturlash. 22.Tilning sistema ekanligi. Tilning ontologik tabiati. 23.Valentlik nazariyasi va tilshunoslik. Valentlik nazariyasi bo‘yicha qilingan tadqiqotlarga doir mulohazalar. 24. Akustika va tilshunoslik. 25. Tilshunoslikda maydon nazariyasi. Sh.Iskandarovaning maydon

	nazariyasiga oid tadqiqotlari xususida. 26. J.Eltazarovning yadro, periferiya munosabatiga doir qarashlariga mulohaza bildirish. 27.Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Formal grammatika 28.Tilni o'rganishda statistik metodlardan foydalanish. Statistik metodlar asosida yaratilgan lug'atlar. 29. Tilshunoslik va kibernetika oid tadqiqotlarni o'rganish. 30. Avtomatik tarjima. 31. O'zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi sohasida olib borilayotgan ishlar haqida. 32. Lingvistik belgilar. 33. Dialektologiya. Areal lingvistika. 34. Hozirgacha yaratilgan ijtimoiy fanlarga oid soha lug'atlari xususida. 35. Hozirgacha yaratilgan tabiiy fanlarga oid soha lug'atlari xususida. 36. O'zbek tili terminlarida omonimiya, polisemiya, polifunksionallik muammosi 37.Fanga oid terminlarning leksik tizimdagi o'rni
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Tilshunoslikning tabiiy fanlar fiziologiya, nevralogiya, kimyo, fizika, matematika, kibernetika bilan munosabati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, turli metodlar, ayniqsa, zamonaviy metodlar bilan tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi sohalarni o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi, muayyan bir yangi soha haqida to'la ma'lumot berish va amalda tatbiq qilish malakasiga ega bo'lishi, tilshunoslik va tabiiy fanlarning o'zaro ta'siri, integral hodisalar bilan bog'liq masalalarni tahlil qilishi va mavzu bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil

	mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1.Aliqoriyev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent, 1999. 2.Berdialiyev A.O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi (darslik-qo‘llanma). – Xo‘jand, 2015. 3.Mirtojiyev M. O‘zbek tili fonetikasi.–Toshkent: Fan, 2013. 4.Mo‘minova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya., 1993. 5.Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001. 6.Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. –Urganch, 2019. 7.Rasulov I. Falsafa. – Toshkent, 1998. – B.142. 8.Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. –Andijon, 2012. 9.B.Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. –Budapesht, 2006. 10.Fayzixo‘jayeva D.Mantiq. Darslik. –Toshkent, 2017. 11.Yusupova O. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. **Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar** Aliqulov Z., Boymirzaeva S. Sotsiolingvistika (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2010. – 96 b. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. Toshkent: Fan, 2007. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): f.f.d....diss.avtoref. –T., 1999. Yuldashev I. O‘zbek kitobchilik terminologiyasi shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish: f.f.d....diss.avtoref. –T., 2005. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007. Cedric Boeckx / Massimo Piatelli-Palmarini language as a natural object-linguistics as a natural science // The Linguistic Preview/. Volume 22, Issue 2-4, 447-466. Кедров Б.М. О современной классификации наук // Вопросы философии. 1980. №10. – Б.85. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. –Samarqand: Zarafshon, 1992 Mirtojiyev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2004. Nurmonov A. O’zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. – Andijon, 1992. Normo‘minov Sh.T. O‘zbek tili so‘z turkumlari tizimidagi yadro-periferiya aloqalarining funksional-semantik tadqiqi: fil.fan.f.d(Phd)…diss.avtoref. – Samarqand, 2019. Normo‘minov Sh. Til tizimi va so‘z so‘z turkumlariparadigmasi

	yadro-periferiya munosabatlari haqida// SamDU Ilmiy axborotnoma. №6. 2016. –B.112-116 Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? –Toshkent,1981. Eltazarov J.D. So‘z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabati// O‘zbek tili va adabiyoti, 3-son, 2006. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zME” davlat nashriyoti, 2002. **Axborot manbalari (saytlar):** 1.www.literature.uz. 2.www.genhis philol.ru. 3.http:// www.lingvist.tu 4.http:// www.til.sk.uz 5.http:// www.ziyouz.com 9.http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat o‘zbek-tili-va-adabiyoti-13-05-2016
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2022-yil -dagi -son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.**
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: O.S.Yusupova – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
9.	**Taqrizchilar:** Pardayev A– SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki) D.O‘rinboyeva – SamVXTXQTMO professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)